



Farxod NARZIEV,
O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
E-mail: ulke 01659@mail.ru

O'zMU dotsenti U.Maxkamov taqrizi ostida

THE FORMATION OF THE FAMILY INSTITUTE BASED ON SPIRITUALITY

Annotation

The article analyzes the role of socio-economic changes after independence in the formation and development of the family institution in Uzbekistan. In the process of building a civil society, the role of the family in state policy, its legal, spiritual, and social foundations are widely covered. Decrees and resolutions on supporting families and women, the activities of the "Agency for Family and Gender Issues," and the critical and analytical approaches of President Sh.M. Mirziyoyev are also reflected. The study scientifically analyzes the legal, spiritual, and medical improvement of family policy, the reform of the institution of marriage, and regulatory mechanisms aimed at protecting the rights of youth and women. As a result, the national concept of strengthening the institution of the family in Uzbekistan and its strategic importance in the development of civil society are substantiated.

Key words: Family institution, micro-society, independence, social policy, state programs, "Family Code," "For a Healthy Generation" fund, gender equality, spirituality, civil society, family values, social stability.

MA'NAVIYAT NEGIZIDA OILAVIY INSTITUTNING SHAKLLANISHI

Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonda oila institutining shakllanishi va rivojlanishida mustaqillikdan keyingi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning o'rni tahlil qilinadi. Fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida oilaning davlat siyosatidagi o'rni, uning huquqiy, ma'naviy va ijtimoiy asoslari keng yoritilgan. Shuningdek, oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga doir farmon va qarorlar, "Oila va gender masalalari bo'yicha agentlik" faoliyati hamda Prezident Sh.M.Mirziyoyevning tanqidiy-analitik yondashuvlari o'z aksini topgan. Tadqiqotda oila siyosatining huquqiy, ma'naviy va tibbiy jihatdan mukammallashuvi, nikoh institutining islohoti, yoshlar va ayollar huquqlarini himoyalashga qaratilgan me'yoriy mexanizmlar ilmiy tahlil qilinadi. Natijada O'zbekistonda oila institutini mustahkamlashning milliy konsepsiyasi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi strategik ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Oila instituti, mikrojamiyat, mustaqillik, ijtimoiy siyosat, davlat dasturlari, "Oila kodeksi", "Sog'lom avlod uchun" jamg'armasi, gender tengligi, ma'naviyat, fuqarolik jamiyati, oilaviy qadriyatlar, ijtimoiy barqarorlik.

ФОРМИРОВАНИЕ СЕМЕЙНОГО ИНСТИТУТА НА ОСНОВЕ ДУХОВНОСТИ

Аннотация

В статье анализируется роль социально-экономических изменений после обретения независимости в становлении и развитии института семьи в Узбекистане. В процессе построения гражданского общества широко освещается роль семьи в государственной политике, ее правовые, духовные и социальные основы. Также отражены указы и постановления по поддержке семьи и женщин, деятельности "Агентства по вопросам семьи и гендера," а также критико-аналитические подходы Президента Ш.М.Мирзиёева. В исследовании проводится научный анализ правового, духовного и медицинского совершенствования семейной политики, реформы института брака, нормативных механизмов, направленных на защиту прав молодежи и женщин. В результате обоснована национальная концепция укрепления института семьи в Узбекистане и его стратегическое значение в развитии гражданского общества.

Ключевые слова: Институт семьи, микро общество, независимость, социальная политика, государственные программы, "Семейный кодекс," фонд "Соглом авлод учун," гендерное равенство, духовность, гражданское общество, семейные ценности, социальная стабильность.

Kirish. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi tub o'zgarishlar natijasida oila instituti masalasiga yangicha yondashuvni shakllantirish taqozo etmoqda. Bu avvalo oilaga fuqarolik jamiyatining instituti sifatida qarashda namoyon bo'ladi.

Fuqarolik jamiyati kishilarning ixtiyoriy uyushmalariga, ijodiy tashabbuslari asosida tashkil etilgan birlashmalariga tayanadigan va ularni qo'llab-quvvatlaydigan ijtimoiy makondir. Mazkur makonda oila instituti, undagi hayotni va avlodlararo munosabatlarni tashkil etish muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi mustaqil taraqqiyotga o'tgan dastlabki kunlaridanoq oila instituti, ijtimoiy demografiya, kelajak avlod tarbiyasi masalalariga davlat siyosatining ustuvor

yo'nalishlaridan biri sifatida katta e'tibor qaratdi. Chunki mustaqillik yo'lida dadil ilgariylayotgan har qanday davlatning poydevori — barqaror va sog'lom oila, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom avloddir. Shu sababli, O'zbekistonda oilani muhofaza qilish, uning huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy asoslarini mustahkamlashga yo'naltirilgan keng qamrovli islohotlar boshlab yuborildi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'tgan asrning 80–90-yillariga kelib, butun Sovet Ittifoqi hududida, jumladan O'zbekistonda ham ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqiroz yanada avj oldi. O'sha og'ir iqtisodiy davrda ko'plab davlatlar aholi sonini cheklash, yoki demografik bosimni pasaytirish siyosatini yuritgan bir paytda, O'zbekiston, aksincha, aholi ko'payishi, sog'lom avlod yetishtirish va oilalarni ijtimoiy muhofazalashni

ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgiladi. Bu borada 1993 yilda "Sog'lom avlod uchun" xalqaro xayriya jamg'armasining tashkil etilishi, 1994–1998 yillarda bolali oilalarni qo'llab-quvvatlashga doir bir qator Prezident farmon va qarorlarining qabul qilinishi, shuningdek, 1998 yilda "Oila kodeksi"ning tasdiqlanishi, 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son [1]. farmonida belgilab berilgan chora-tadbirlar mazkur muammolarga yechim izlash yo'lidagi tizimli yondashuvlarning amaliy tasdig'idir.

Markazda O'rta Osiyo xalqlari davlat dotatsiyasiga yashayapti, ularda tug'ilish ko'p, shu bois ular davlat mablag'larining asosiy qismini o'ziga jalb etayapti, ulardagi tug'ilish jarayonini kamaytirish lozim, degan masalalar ko'tarilgan. Oilani rejalashtirish mavzusi keskin muhokama qilingan, respublikamizda ham bu mavzuni ko'targan tadqiqotchilar topilgan. Mamlakatda yuzaga kelgan inqirozni oila va tug'ilishga yuklash xavfi paydo bo'lgan o'sha davrda qanday qilganda o'zbek xalqining bolajonlik tuyg'usini tahqirlamagan tarzda, oilaviy hayotni sivilizatsiyaviy tashkil etish mumkin, degan savolga ratsional, etnomadaniy merosga muvofiq javob topish zarur edi. Buni davlat miqyosida, maxsus institutlar orqali hal etish mumkin edi. Shu niyatda 1991 yil 23 fevralda O'zbekiston xotin-qizlar Qo'mitasi tashkil etiladi. Bu tashkilot yuridik nuqtai nazardan Vazirlar Mahkamasi qoshida tashkil etilgan bo'lsa-da, ichki faoliyatini olib borish, oilalar bilan aloqalar o'rnatish, xotin-qizlarga turli yordamlar ko'rsatish va ma'naviy ma'rifiy ishlar olib borishda fuqarolik jamiyatiga xos institut edi. Shuning uchun ham u keyinchalik fuqarolik jamiyati instituti sifatida qayd etiladigan bo'ldi. Qo'mita zimmasiga:

a) bozor munosabatlariga o'tish paytida ayollarga ijtimoiy va kasb kor yordamini ko'rsatish, davlat hokimiyati organlarida erkaklar bilan teng huquqlik asosida vakillik ishtirokini ta'minlash, jamiyatdagi demokratik o'zgarishlarda ular qatnashuvini kengaytirish; xalq xo'jaligida xotin-qizlar rolini oshirish, mehnat bozori va bandlikda ularning ahvolini yaxshilash, respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarga xotin-qizlarni jalb etish va ular imkoniyatlaridan foydalanish;

b) bilim olish, malakasini oshirish va kvalifikatsiyasini yuksaltirishda teng huquqligini ta'minlash; jamiyatni qayta qurish loyihalarini bajarish va boshqarishga, rivojlanishning davlat dasturlarini amalga oshirishda ayollar ishtirokini kengaytirish; ularning huquqiy va funksional savodxonligini oshirish, huquqiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish, huquqiy kafolatlarini mustahkamlash;

v) onalik va bolalikni himoya qilish, oilani rejalashtirish, ayollar reproduktiv salomatligini mustahkamlash, "Sog'lom avlod uchun" davlat dasturini amalga oshirish, ona va bola manfaatlarini himoya qilish uchun davlat va nodavlat tashkilotlariga har tomonlama yordam ko'rsatish;

g) xalqaro xotin-qizlar tashkilotlari bilan aloqalarni rivojlantirish, siyosat, madaniyat, ilm-fan, iqtisodiyot masalalari bo'yicha axborotlar almashish, IV Butunjahon ayollar konferensiyasi qabul qilgan harakatlar Platformasidagi vazifalarni bajarishni ta'minlash kabilar yuklatilgan [2]. To'g'ri, mazkur hujjatda Respublika xotin-qizlar Qo'mitasining vazifalari sovet davrida shu tashkilotga oid qabul qilingan hujjatdagi vazifalardan deyarli farq qilmaydi. Ularning ikkalasida ham umumiylik, mavhumlik, faoliyatida qog'ozbozlik, rasmiyatchilik ustuvor. Shu bois ham Qo'mita ishi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tomonidan tanqid qilingan[4]. Natijada Vazirlar Maxkamasining 2024 yil 12 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-

huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 500-son Qarori bilan Qo'mita faoliyatiga bir qator o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritildi. Jumladan Qo'mitaning faoliyat maqomi oshirildi. Bundan tashqari Qo'lita tarkibida faoliyat olib boradigan tashkilo va muassasalarining faoliyat sohasi aniq belgilab berildi [4].

2023 yil 30 aprel kuni referendumda umumhalk ovoz berishi orqali qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham XIV bobdagi "Oila" degan bobi "Oila, bolalar va yoshlar" deb takomillashtirildi. Mazkur bobdagi meyorlar umuminsoniy normalarga va xalqaro gumanitar huquqqa muvofiq keladi. Davlatimiz onalik va bolalikni himoya qilish, oila hayotiga ziddiyatli ta'sir etadigan bozor iqtisodiyotiga o'tish pallasida zaif, yordamga muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlash yo'lini tutdi. 2021 yil 18 avgustda "Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish hamda kambag'allik bilan kurashish ko'lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6277-son Prezident Farmoni [5]. qabul qilindi, 1998 yil "Oila yili", 1999 yil "Ayollar yili", 2001 yil "Ona va bola yili", 2002 yil "Qariyalarni qadrlash yili", 2003 yil "Obod mahalla yili", 2008 yil "Yoshlar yili", 2012 yil "Mustahkam oila yili", 2013 yil "Obod turmush yili", 2014 yil "Sog'lom bola yili", 2015 yil "Keksalarni ye'zozlash yili", 2016 yil "Sog'lom ona va bola yili", 2021 yil "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" deb e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi huzurida "Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti", "Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi" tashkil etildi, "Oila kodeksi" qabul qilindi.

Oila va uni miliy asosda qurish o'ziga xos konsepsiyaga aylandi. Mustaqillik yillarida qabul qilingan meyoriy hujjatlar, chop etilgan ilmiy asarlar va amalga oshirilgan chora-tadbirlarni kuzatishdan ayon bo'ladiki, respublikamizda oila instituti, undagi avlodlararo munosabatlar dolzarb ahamiyatga ega yo'lni, pozitsiyani taqozo etadi. O'tgan o'n yilliklarda qabul qilingan hujjatlar mustaqil davlatimiz oila siyosatini ifoda etadi. Oila va xotin-qizlarga doir 20 dan ortiq Prezident farmonlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi tomonidan 30 ga yaqin davlat dasturlari, kompleks chora-tadbirlar va amaliy rejalar qabul qilindi. Ushbu hujjatlar mamlakatda oila institutini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Masalan, 1994 yili qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat protsessual kodekslarida 18 yoshga to'lmagan xotin-qizlarga nisbatan o'lim jazosini qo'llash taqiqlandi. Ilgari bu tartib faqat homilador ayollarga nisbatan amal qilgan bo'lsa, keyinchalik u kengaytirilib, ayollarga nisbatan umuman o'lim jazosi bekor qilindi. Shuningdek, mazkur kodekslarda ikki xotinlik, ko'p xotinlik, majburiy nikoh va jinsiy zo'ravonlik kabi holatlarga qarshi kurash choralari kuchaytirildi va jazo muddatlari uzaytirildi. So'nggi yillarda, xususan 2017 yildan keyin, oila institutini yanada qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muhim hujjatlar qabul qilindi. 2019 yil 2 iyulda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. 2020 yil 4 sentabrda "Ayollarga nisbatan zo'ravonlik va tazyiqning barcha shakllariga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun kuchga kirdi. 2021–2022 yillarda "Oila institutini mustahkamlash va gender tenglikni ta'minlash"ga qaratilgan davlat dasturlari amalga oshirildi. 2022 yilda "Oila va gender masalalari bo'yicha agentlik" tashkil etildi, bu tuzilma xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish va oilalarni qo'llab-quvvatlash sohasida markaziy organ sifatida faoliyat yuritmoqda. Umuman, qabul qilingan mazkur farmonlar, qonunlar va dasturlar O'zbekistonda oilaga, xotin-qizlarga va bolalarga nisbatan

ijtimoiy siyosatning jiddiy va izchil amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

“Oila kodeksi” mamlakatimizda yangi, mustaqil oila siyosatining huquqiy poydevori sifatida xizmat qiladi. Mazkur kodeks oila institutini huquqiy jihatdan mustahkamlash, oilaviy munosabatlarni demokratik, insonparvarlik tamoyillari asosida tartibga solishga qaratilgan. U nikoh tuzish va uni bekor qilish, haqiqiy emas deb topish shartlari, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro huquq va majburiyatlar, farzand tarbiyasi, mulkiy munosabatlar, fuqarolik holatlarini qayd etish va ulardan foydalanish tartibini aniq belgilab beradi. Kodeksda alohida tarzda urf-odat va milliy an'analarning ahamiyati e'tirof etilgan bo'lib, “qonun hujjatlarida oilaviy munosabatlarga oid normalar yo'q bo'lsa, qonunchilikka zid bo'lmagan holda mahalliy urf-odat va an'analarni qo'llash mumkin”ligi belgilangan. Bu, nafaqat milliy huquqiy tizimda, balki jahon huquq amaliyotida ham yangi huquqiy yondashuv sifatida e'tirof etiladi.

Shu bilan birga, mustaqil O'zbekiston o'zining milliy qadriyatlariga tayanadigan, biroq inson huquqlarini ustuvor qo'yuvchi qonunchilikni shakllantirish yo'lidani bordi. Masalan, nikoh yoshi erkaklar uchun 18 yosh, ayollar uchun 17 yosh etib belgilandi. Ayollar uchun ayrim hollarda nikoh yoshi 16 yoshgacha tushirilishi mumkin bo'lib, bu holda mahalliy hokimiyat organlaridan rasmiy ruxsat talab etiladi. Dastlabki yillarida diniy nikoh asosidagi munosabatlar, ayniqsa, yosh qizlar o'rtasida keng tarqala boshlagani tashvish uyg'otgan edi. Xususan, rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 15–16 yoshli qizlar bilan tuzilgan nikohlar umumiy nikohlarning 15 % dan ortiq qismini tashkil etgan. Bu esa huquqiy, tibbiy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi ehtimolini oshirardi.

Shuning uchun “Oila kodeksi”da (13-modda, 5-band) diniy nikohning huquqiy kuchga ega emasligi alohida ta'kidlandi. Bu esa jamiyatda huquqiy va diniy tartiblarni aniq ajratish, nikoh munosabatlarida davlat nazoratini ta'minlashga xizmat qildi.

Bundan tashqari, avval faqat “sinov oyi”dan so'ng rasmiylashtirilgan nikoh, yangi kodeksga ko'ra, muayyan vaziyatlarda — homiladorlik, farzand tug'ilishi yoki og'ir kasallik hollarida — ariza berilgan kunning o'zidayoq rasmiylashtirilishi mumkin. Bu holat ham insonparvarlik tamoyillaridan kelib chiqqan holda joriy etildi. Shuningdek, milliy qonunimizga muvofiq, nikohni taqiqlash hollari ham belgilandi. Ularga tug'ishgan aka singillar, saqlab olingan farzandlar, yaqin qarindosh-urug'lar o'rtasidagi nikohlar kiradi. Bunday nikohlardan ko'pincha nogiron farzandlar tug'iladi, bunday farzandlarni tarbiyalash va oyoqqa turg'izish oilaga ham, davlatga ham juda qimmatga tushadi. Maxsus kuzatishlardan ma'lumki, bunday nikohlardan tug'iladigan nogiron farzandlar odatdagidan deyarli ikki marta ziyoddur [6]. Bunday salbiy hollarning keng tarqalmasligi uchun Oila kodeksida quyidagi hollarda nikoh tuzishga yo'l qo'yilmasligi o'rnatildi:

loaqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o'rtasida;

nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida;

tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida,

shuningdek, farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida;

loaqal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o'rtasida. Nikohlanuvchi tomonlar, erkak va ayol sog'liqni saqlash muassasalarida maxsus ko'rikdan o'tgach nikohga kirishlari mumkin. Agar qonunda o'rnatilgan tartiblarga zid hollar, ya'ni nikoh majburlorv ostida tuzilgan

bo'lsa, soxta nikoh va bolag'atga yetmaganlar bilan nikoh kabilar sud tartibida haqiqiy emas, deb topiladi. Nikoh shartnomasining tartibga kiritilishi ham davlatning yangi oila siyosatiga oid muhim tomonlardan biridir. 1994 yili qabul qilingan Jinoyat va Jinoyat protsessual kodekslarida 18 yoshga to'lmagan xotin-qizlarga nisbatan o'lim jazosini qo'llash mumkin emasligi belgilab qo'yildi. Ilgari bu imtiyoz faqat homilador ayollarga nisbatan qo'llangan bo'lsa, endi ushbu himoya doirasi kengaytirildi va keyinchalik xotin-qizlarga nisbatan o'lim jazosi butunlay bekor qilindi. Shuningdek, mazkur kodekslarda ikki xotinlik, majburiy nikoh, jinsiy zo'ravonlik kabi holatlar uchun jazolar kuchaytirildi.

Oila institutini huquqiy jihatdan tartibga solishda 1998 yilda qabul qilingan “Oila kodeksi” muhim ahamiyat kasb etdi. Kodeksda nikoh tuzish, uni bekor qilish, oilaviy burchlar, farzandlar tarbiyasi, oila a'zolari o'rtasidagi mulkiy munosabatlar kabi masalalar tartibga solingan. Ayniqsa, kodeksning “o'rtada huquqiy normalar bo'lmagan holda milliy urf-odat va an'analarga tayanish mumkin” degan qoidasi huquqiy jarayonda milliy an'analarni inobatga olishni ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida milliy va zamonaviy huquqiy yondashuvning uyg'unligini ta'minlaydi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida faqat diniy nikoh bilan cheklanish holatlari ham keng tarqalgan edi. Bunday holatlar ham huquqiy, ham ma'naviy jihatdan jiddiy tahlilarga sabab bo'ldi. Chunki ko'pgina nikohlar 15–16 yoshli qizlar bilan tuzilar, ularning huquqiy himoyasi ta'minlanmas edi. Shu bois “Oila kodeksi”ning 13-modda 5-bandida diniy nikoh huquqiy kuchga ega emasligi aniq belgilandi.

Shuningdek, avvalgi qonunlarda nikoh faqat bir oylik sinov muddatidan keyin rasmiylashtiriladi edi. Yangi tartibga muvofiq, homiladorlik, tug'ruq, kasallik kabi hollarda nikohni ariza berilgan kuniyoq rasmiylashtirish mumkinligi ham nazarda tutildi. Bu tartib amaliy jihatdan oilalarning huquqiy himoyasini kuchaytirishga xizmat qildi. Prezidentimizning 2017 yil 14 yanvardagi alohida ahamiyatga ega “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak” degan nutqida sog'liqni saqlash sohasida ildiz otgan illatlarni keskin tanqid qiladi. Prezidentimiz sog'liqni saqlash sohasi rahbariga qarata: “Birinchidan, nima sababdan o'tgan shuncha yil mobaynida sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'ini, eng avvalo qishloq vrachlik punktlarini isloh qilish samaradorligi ta'minlanmadi? Bugungi kunda ularda 2 ming 500 nafar vrach yetishmaydi, bu maskanlarni zamonaviy uskunalar bilan jihozlash va dori vositalari bilan ta'minlash darajasi juda past; ikkinchidan, diagnostika darajasi pastligi va vrachlarning malakasi yetarli emasligi natijasida yiliga 30 mingdan ziyod yurtdoshimiz davolanish uchun xorijiy mamlakatlarga borishga va oila budjetidan katta mablag' sarflashga majbur bo'layotganidan sizning xabaringiz yo'q-mi? uchinchidan, siz qachon tez tibbiy yordamning barcha tuzilmalarida tartib o'rnatib, ularning barqaror ishlashini ta'minlaysiz? Nima sababdan ular aksariyat hollarda bemorlarga haqiqiy tez yordam ko'rsata olmaydi? to'rtinchidan, tibbiyot xodimlari o'rtasidagi salbiy holatlarga qachon barham beriladi? Bu borada faqatgina o'tgan yilning o'zida 174 ta jinoyat ishi qo'zg'atilgan. Sog'liqni saqlash xodimlari bilan yaqinda bo'lib o'tgan uchrashuvda tug'ruqxonalardagi ta'magirlik bilan bog'liq salbiy holatlar to'g'risida sizga va tizim rahbarlariga alohida aytgan edim...”, - deydi[7]. Agar yuqorida keltirilgan raqamlar samara berganida, sohada yangilanishlar ro'y berganida Prezident bu gaplarni aytmasdi, albatta.

Mazkur islohotlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar mamlakatimizda oila institutini huquqiy, ijtimoiy, ma'naviy va tibbiy jihatdan mustahkamlash, uning jamiyatdagi o'rni va rolini yuksaltirish, ayniqsa, xotin-qizlar va bolalar huquqlarini

ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Bugungi kunda ham bu yo'nalishdagi ishlar Prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan yangi bosqichda, tanqidiy tahlil va islohotlar ruhida izchil davom ettirilmoqda. Sh.M.Mirziyoev ijtimoiy hayotni chin demokratik tamoyillarga muvofiq isloh qilishga qaratilgan 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son farmonni ishlab chiqish va uni qabul qilishga bosh qosh bo'ldi [8]. Oldingi o'n yillarda shakllangan raqamlar ketidan chopish, amalga oshirilmagan ishlarni qog'ozlarda ko'rsatib maqtanish, qog'ozbozlik va ko'zbo'yamachiliklarga

barham berishni o'zining tanqidiy tahlil, ish usuli deb e'lon qildi. Natijada oila institutiga mutlaq yangicha munosabatni shakllantirmoqda.

Bugun raqamlar ketidan quvish, qog'ozlarda hammasini silliq qilib ko'rsatish emas, balki Prezidentimiz iborasi bilan aytganda "xalqimiz ertaga emas, bugun bizdan amaliy natijalarni kutmoqda". Uning bu talabi xalqimizning istagini ifoda etadi. Oila institutini va avlodlararo munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar bu boradagi ilmiy nazariy izlanishlarni kengaytirishni ham kun tartibiga qo'ymoqda.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni
2. Ubaydullaeva R.A. Semya v Uzbekistane. - Tashkent, 2012. Prilojenie. №1. S. 129.
3. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.1. - Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017. 529 b.
4. Vazirlar Maxkamasining 2024 yil 12 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 500-son Qarori
5. "Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish hamda kambag'allik bilan kurashish ko'lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 18 avgustdagi PF-6277-son Prezident Farmoni
6. Ubaydullaeva R.A. SemyavUzbekistane. - Toshkent: 2012. S.13.
7. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.1. - Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017. 250-251 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni